

XALQ CHO'LGULARI ORKESTRIDA AFG'ON RUBOBI CHOLG'USINING TUTGAN O'RNI

Yo'ldashev Abbos Baxrom o'g'li

O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali 4-bosqich talabasi.

yoldashevabbos844@gmail.com

Abatbaeva Rano Allambergenovna

Ilmiy rahbar.

abatbaevarano35@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13830078>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbek xalq cholg'ulari orkestrida Afg'on rubobining tutgan o'rni haqida so'z yuritiladi va albatta afg'on rubobing tarixi haqida va sozlanishlari aplikaturalari haqida so'z yuritiladi. Bu maqolada afg'on rubobining xalq cholg'ulari orkestrida tutgan o'rni, uning tarixi, xususiyatlari va ahamiyati haqida to'liq ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: orkestr, konsert, risola, musiqa, arxeologiya, miniatyura, konservatoriya, g'ijjak, rubob, nay va sunray.

THE PLACE OF THE AFGHAN RUBOBI IN THE FOLK INSTRUMENT ORCHESTRA

Abstract. This article will talk about the role of the Afghan rhubarb in the orchestra of Uzbek folk instruments and will definitely talk about the history of Afghan rhubarb and about the applicatures of the tuning. This article provides a comprehensive overview of the role of the Afghan rhubarb in the orchestra of folk instruments, its history, characteristics and significance.

Key words: Orchestra, concert, brochure, Music, Archaeology, miniature, Conservatory, fiddle, rubob, flute and sunray.

МЕСТО АФГАНСКОГО РУБОБИ В ОРКЕСТРЕ НАРОДНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ

Аннотация. в этой статье рассказывается о роли афганского ревеня в оркестре узбекских народных инструментов и, конечно же, об истории афганского ревеня и его настройках. В этой статье будет подробно рассказано о роли афганского ревеня в оркестре народных инструментов, его истории, особенностях и значении.

Ключевое слова: Оркестр, концерт, брошюра, музыка, археология, миниатюра, консерватория, скрипка, ремень, флейта и солнце.

O'zbek xalq musiqa madaniyatida cholg'u asboblarning o'rni juda muhimdir. Har bir asbob o'ziga xos xususiyatlarga, tovush ranglariga va ijro uslublariga ega. Afg'on rubobi, albatta, O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarining xalq musiqasi to'plamida muhim rol o'ynaydi. O'zbek xalq cholg'ulari va

musiqa ijrochiligi san'ati ko'p asrlik o'tmishga borib taqaladi. O'zbekiston musiqa cholg'ulari dunyoning qadimiy cholg'ulari sirasiga kiradi. O'rta Osiyoning turli joylaridan, arxeologik qazilmalar orqali topilgan, haykaltaroshlik asarlari ushbu cholg'ularning qadimiy va o'rta asrlarga tegishli ko'rinishlarini saqlab qolgan.

XX asrning 30-yillari oxirlaridan boshlab yurtimizda orkestr ijrochiligiga sezilarli e'tibor berila boshlandi. 1948-yilda O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshida tashkil qilingan afg'on rubobining tarixi afg'on rubobi, asosan Afg'oniston hududida paydo bo'lgan va keyinchalik qo'shni mamlakatlarga, shu jumladan O'zbekistonga tarqalgan. Rubob asbobi temir, yog'och va cho'pon mo'ynasidan tayyorlangan bo'lib, uning tasvirlari qadimgi parchalar va miniatyuralardan bilinadi. Rubobning ma'lum bo'lgan eng qadimiy xillari miloddan avvalgi davrga borib taqaladi. Boz ustiga, rubobning bugungi kunda ham o'zgarib, rivojlanib borayotgan turli formalari mavjud.

Cholg'u musiqa ijrochilik san'ati o'zbek xalqining boy musiqa madaniyatida salmoqli o'rin tutadi.

O'rta Osiyoda yashagan buyuk olim, faylasuf Abu Nasr Farobiyning musiqa haqidagi risolasida shunday deb yozgan: "Kishi ovozig a yaqin tovush chiqaradigan cholg'u sozlar-g'ijjak, rubob, nay va sumaydir, ushbu¹ cholg'ular inson ovozig a juda yaqinligini ta'kidlaydi. Qolaversa, cholg'u sozlar ashulaga ham jo'r bo'ladi, ashulaning boshlang'ich musiqasini va uning orasidagi cholg'u qismlarini hosil qiladi".

Farobiyning bergan ta'riflari hozirgi davrga qadar saqlanib, rivojlanib kelmoqda. Al-Farobiy (X asr) o'z davridagi musiqa cholg'ularini tavsiflar ekan, rubobda bir-biridan farq qiladigan ijroga erishish mumkinligini, uning afzalliklaridan bir deb hisoblagan. Unda baland va mayin chalish imkoni mavjud.

Darvesh Ali (XVII asr) "Musiq a haqida risola" asarida musiqa cholg'usining tuzilishi bayon qilar ekan "Rubob-torli musiqa asbobi".

Xalq cholg'ulari orkestri – bu turfa xil musiqiy asboblardan iborat bo'lib, uning asosiy maqsadi xalq musiqasini saqlash va rivojlantirishdir. Afg'on rubobi ushbu orkestrning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ularning birortasi ham rubobsiz to'liq qaramasligini bilamiz. Rubobning ohanglari va ritmlari orkestrning umumiy muvofiqligini ta'minlaydi. Rubobning orkestrda tutgan o'rmi ko'p jihatdan uning melodik xususiyatlari bilan bog'liq. Rubob, an'anaviy tarzda, yoqimli va izchil ohanglari bilan tinglovchilarni maftun qiladi. Ayniqsa, folklor musiqasi ijrosida rubob o'zi uchun yaratilgan an'anaviy melodiylarni yorqin tarzda aks ettiradi.

Bugungi orkestr ijrochilarining nafaqat texnik imkoniyatlari, balki ularning umumiy va musiqiy madaniyati yuqori professional darajaga ko'tarildi. Texnik mukammallik hamda orkestrning har bir sozandasi tomonidan ijro etilayotgan materialni umumiy qamrab olinishi ma'nosidagi orkestr ijrosining sifati sezilarli darajada o'sdi. Bu kabi o'zgarishlar yurtimizning

¹ Al-Farobiy (Musiqiy cholg'u tarixi) kitobidan 27-bet

chekka hududlarida ham o'z natijasini ko'rsata boshladi. Surxon vohasining Termiz shahrida musiqa bilim yurti ²tashkil etilishi musiqa san'atining yanada keng ko'lamli rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarilshi edi. 1961-yilda asli Buxorolik bo'lgan bir necha ustozlar Termiz musiqa bilim yurtining tashkil etilishi va faoliyatida katta jonbozlik ko'rsatganlar. Ular Buxoro shahridan Termiz shahriga ko'chib keldilar va uzoq yillar vohada musiqa san'atini rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Dastlab bilim yurtida qashqar rubob va bayan sinfi, 1962-yilda esa nay, chang, g'ijjak sinflari sal keyinroq dutor, rubob prima va afg'on rubob sinflari ochildi. Orkestr sinfini ochilishida Termizdagi Mannon Uyg'ur nomli musiqali drama teatrida faoliyat olib borayotgan aralash orkestrning ham bir muncha ta'siri borligini eslash joizdir. Aralash orkestr deb atashimizning sababi orkestrda faqatgina o'zbek xalq cholg'ulari emas, balki damli cholg'ular ham tarkibda mavjud edi. Termizda xalq cholg'ulari orkestrini tashkil etish va konsert faoliyatini yo'lga qo'yish masalalari biroz mushkulot tug'dirardi, chunki rahbar - dirijyorlar hamda xalq cholg'ulari orkestri tarkibini to'liq tashkil etuvchi sozandalar etishmasdi. Yillar davomida Termiz musiqa bilim yurti faoliyati ham rivojlana bordi: Dirijyorlik fani, orkestr fani, xalq cholg'ularida ijrochilik sinflari va boshqa yo'nalishdagi fanlar ham o'qitila boshlandi. Xalq cholg'ulari orkestrini sifatli va rang-barang ijrosini ta'minlash uchun musiqachilar uzoq yillar izlanishlar olib borishdi.

Orkestrni partitura cholg'ular bo'yicha tashkil etish juda muhimdir, chunki har bir soz tovushi orkestr ijrosida katta ahamiyat kasb etadi. Bu juda muhim masala bo'lib, uning yechimini topish rahbar - dirijyor zimmasidagi vazifa hisoblanadi. Termiz musiqa bilim yurtida bas ovozlari o'rnini turli yo'llar bilan to'ldirib, orkestr kamchiliklarini bartaraf etishga harakat qilinar edi. Yo'gon ovozlari o'rni ba'zan akkordeon, ba'zida esa damli cholg'ular (goboy, klarnet, saksofon, tuba) bilan to'ldirilardi. 1980-85-yillarda dutor bas va dutor kontrabaslar, 1990-yillardan g'ijjak kontrabas ham xalq cholg'ulari tarkibida paydo bo'ldi. Qashqar rubobi ijrochilarini dutor bas va dutor kontrabas cholg'usini chalish ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini inobatga olib, texnik va hajm jihatdan uncha murakkab bo'lmagan asarlar tanlaganlar. Vaqt o'tgan sari musiqa san'atida ayniqsa cholg'u ijrochiligida qilingan mehnatlar o'z samarasini ko'rsata boshladi, xalq cholg'ulari orkestrida partitura talabi bo'yicha barcha cholg'ular deyarli mavjud edi.(qo'shnay, nay pikkolo va ksilafonlar bundan mustasno) Agar biz akademik cholg'u ijrochiligi va orkestr ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, qisqa davr ichida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritganimizga amin bo'lamiz. 1940-2021-yillar davomida milliy musiqamizga xos bo'lgan monodik tuzilmadan polifonik yoki gomofonik tuzilmani mukammal o'zlashtirganligimiz, chet el va qardosh xalqlar musiqasini

² Abatbaeva, R. "KOMPOZITOR NAJIMADDIN MUXAMMEDDINOV DÓRETIWSHILIGINDE ERTEK JANRÍ (To'g'iz to'ng'ildaq bir shi'nikildek ertegi tiykarında)." *Вестник музыки и искусства* 1.2 (2023): 46-51.

maromiga etkazib ijro qila olishimiz shu bilan birga milliy cholg'ularimizning oiladosh turlarini is'temolda mahorat bilan qo'llanilishi yutuqlarimiz namunasidir

Afg'on rubobining musiqiy xususiyatlari juda boy va rang-barang. Uning tovushi, odatda, batafsil va chuqur bo'lib, turli melodik xususan ritmik chiziqlarga ega. Bir nechta cho'plarga ega bo'lgan rubob, ko'plab muqaddas va xalq an'analarini ifodalashda yordam beradi. Rubob unutilmas musiqiy xotiralarni va his-tuyg'ularni tuhfa etadi, bu esa o'z navbatida, xalq cholg'usiga ichki chuqurlik va melankoli kiritadi.

Afg'on rubobi, shuningdek, xalq musiqa madaniyatimizda madaniy musiqiy meros sifatida muhim ahamiyatga ega. Uning nafaqat O'zbekiston, balki Afg'oniston, Tojikiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi musiqiy tizimlarida o'rni beqiyos. Rubob, odatda, qiyosiy muqaddas joylarda raqslar va marosimlar davomida ijro etiladi, uning ahamiyati va ma'naviyati beqiyosdir. Rubob, shuningdek, ijrochilar va musiqashunoslar orasida ham o'z o'miga ega. U jamoaviy muhitda ijro etilishi mumkin, bu esa xalq madaniyatini o'zida mujassam etadi. Orkestrda rubobning ishtiroki, ko'plab ijodkorlar uchun ilhom manbai hisoblanadi, bu esa xalq musiqasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, afg'on rubobi O'zbek xalq cholg'ulari orkestrida o'ziga xos va muhim o'rin tutadi. U nafaqat musiqiy asbob sifatida, balki xalqning madaniy merosi sifatida ham ajralmas qismdir.

Afg'on rubobi xalq musiqasining rang-barangligini, chuqurligini va uning samimiyligini ifodalovchi vosita bo'lib, kelajak avlodlar uchun bu merosni saqlab qolish muhimdir. Qolaversa, afg'on rubobining orkestrda o'z o'rini saqlab qolishi, xalq musiqamizni rivojlantirish va takomillashtirish borasidagi say-harakatlarimizda asosiy tarkibiy qismga aylanadi. Naqshinkor va bezakli ohanglar rubob bilan namoyon bo'lib, bizning madaniyatimizni saqlab qolishda davom etadi. Bugungi kunda qoraqalpoq musiqa san'atida bu cholg'uga bo'lgan qiziqishlar yosh talantli ijrochilar orasida ko'payib kelmoqda. Shulardan Omonbay Karimov, Sardor Bazarbaev, Sardor Sotimov Jumladan o'zim ham shu musiqa cholg'u asbobda ijro qilaman.

REFERENCES

1. Usmonov. Q "Boshlang'ich rubob darsligi" Toshkent- 2004.
2. Abatbaeva Rano Historical Image of" Alpamys" In Karakalpak Music (Example in the Works of Nazhimaddin Muhammeddinov) 2023/6/13 Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 138-144 2-tom
3. Abatbaeva, R. "QORAQALPOQ MUSIQA SAN'ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI." *Вестник музыки и искусства* 1.3 (2024): 28-37.
4. GAIPOVA, Mohigul, and Rano ABATBAEVA. "BETAKROR OVOZ SOHIBASI BAG 'DAGUL JAQSIMURATOVA." *Journal of Culture and Art* 2.3 (2024): 130-134.

5. Abatbaeva, R. "KOMPOZITOR NAJIMADDIN MUXAMMEDDINOV DÓRETIWSHILIGINDE ERTEK JANRÍ (To'giz to'ngildaq bir shi'nikildek ertegi tiykarinda)." *Вестник музыки и искусства* 1.2 (2023): 46-51.
6. YO'LDASHEV, Abbos, and Rano ABATBAEVA. "USTOZIM NESIPBAY ALEKEEV TURSINBAEVICHNING IJODIGA BIR NAZAR." *Journal of Culture and Art* 1.3 (2023): 123-129.
7. Gulbahor, YO'LDOSHEVA, and Rano ABATBAEVA. "MUSIQA SAN'ATIDA DAMLI CHOLG'ULARNING AHAMIYATI." *Journal of Culture and Art* 2.3 (2024): 97-101.
8. Yo'ldosheva, Gulbahor, and Rano Abatbaeva. "QORAQALPOQ MUSIQA MADANIYATIDA MUSIQALI DRAMA JANRINING SHAKLLANISHI." *Modern Science and Research* 3.6 (2024).
9. Abatbaeva, R. "QORAQALPOQ MUSIQA SAN'ATIDA SYUITA JANRINING RIVOJI." *Вестник музыки и искусства* 1.3 (2024): 28-37.
10. Matimuratov, S. "QARAQALPAQ KÓRKEM ÓNERINDE XOSH HAWAZ BÚLBÚL TAMARA DOSHUMOVANÍŇ TUTQAN ORNÍ." *Вестник музыки и искусства* 1.3 (2024): 95-99.